

## BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI JAMG‘ARMALAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME’YORIY-USLUBIY ASOSLARI

Namazov Shohruh Ismatulla o‘g‘li

**annotatsiya.** *Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobini yuritishning me’yoriy va uslubiy asoslari juda muhim ahamiyatni kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi budjet tashkilotlari faoliyatida budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobotini to‘g‘ri tashkil etish va uni nazorat qilishning samarali yo‘llarini o‘rganishdan iborat. Jamg‘armalar hisobini yuritishda qo‘llaniladigan mavjud me’yoriy hujjatlar, ular asosida hisob-kitob ishlari va jamg‘armalar bilan bog‘liq buxgalteriya hisoboti jarayonlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, budjetdan tashqari jamg‘armalar boshqaruvini tartibga soluvchi milliy va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilingan. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanishda me’yoriy hujjatlar asosida qanday qilib oshkorlik va samaradorlikni ta’minlash mumkinligi masalalari yoritilgan.*

**kalit so‘zlar:** *Budjet tashkilotlari, budjetdan tashqari jamg‘armalar, buxgalteriya hisobi, me’yoriy hujjatlar, moliyaviy boshqaruv, hisob-kitob, nazorat, buxgalteriya hisoboti, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy intizom*

**Abstract.** *In the new phase of global economic development, the regulatory and methodological foundations of accounting for extra-budgetary funds in budget organizations hold great significance. The aim of the research is to study effective ways of organizing and controlling the accounting for extra-budgetary funds in budget organizations. The existing regulatory documents used in the accounting of funds, as well as the processes of settlements and financial reporting related to these funds, have been thoroughly analyzed. Additionally, a comparative analysis of national and international practices regulating the management of extra-budgetary funds has been conducted. The issues of how to ensure transparency and efficiency in the formation and utilization of extra-budgetary resources in budget organizations based on regulatory documents have been addressed.*

**Key Words:** *budget organizations, extra-budgetary funds, accounting, regulatory documents, financial management, settlements, control, financial reporting, economic efficiency, financial discipline.*

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida davlat moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobini samarali tashkil etish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va mablag‘larning oqilona boshqarilishi muhim davlat siyosati yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda davlat sektorining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun moliyaviy boshqaruvning innovatsion yondashuvlarga asoslangan tizimini shakllantirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan bir qator farmonlar va qarorlar davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg‘armalarning hisobini tashkil etishdagi

dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" davlat moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratdi. Mazkur strategiya asosida davlat budgetini rejalashtirish va budgetdan tashqari jamg'armalar ustidan nazorat qilish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish jarayoni boshlandi. Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri davlat moliyaviy resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash edi. Ushbu farmon orqali qator islohotlar amalga oshirilib, budget va budgetdan tashqari mablag'larning samaradorligini oshirish, ularni boshqarishda xalqaro tajribani tafsiq etish vazifasi qo'yilgan.

Davlat budgeti va budgetdan tashqari jamg'armalar haqidagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni davlat va budget tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini oshkora yuritish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Ushbu qaror asosida budget va budgetdan tashqari mablag'larning aniq hisobini yuritish, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan moliyaviy nazorat mexanizmlari mustahkamlandi.

## MUHOKAMA VA TAHLIL

Budget tashkiloti - zimmisiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budgetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budget tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha budget va budgetdan tashqari mablag'lar buxgalteriya hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining uslubiy ko'rsatmalariga hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkil qiladilar. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, zarur hollarda, o'zlarining tizimidagi budget tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida ko'rsatmalar ishlab chiqarishlari mumkin.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti daromadlarining 2024-yil 1-yarim yilligi ijrosi**

*Manba: Muallif tomonidan Internet ma'lumotlari orqali tayyorlandi*

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilar (ichki, tashqi) ni daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni bo'yicha o'z vaqtida, to'liq hamda aniq buxgalteriya va moliyaviy axborotlari bilan ta'minlab berishdan iborat.

*Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari* – qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag'lardir. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lari tashkil bo'lish manbaalari quyidagilardan iborat:

- Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;
- Tibbiyot muaasasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;
- Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov kontrakt shakli mablag'lari;
- To'lovlarining maxsus turlari bo'yicha mablag'lar;
- Boshqa byudjetdan tashqari maxsus mablag'lar.

Yuqorida keltirilgan byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida-alohida daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbaalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bir yillik muddatga – 1 yanvardan 31 dekabrni ham qo'shgan holda, mavsumiy yoki joriy yilda ishga tushiriladigan tashkilotlar bo'yicha esa, ularning mazkur moliya yilidagi faoliyat ko'rsatish muddatiga tuziladi va amal qiladi.

Xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo'yicha, 4 guruh xarajatlarining to'liq yoyilmasini va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda tuziladi.

Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetasining prognoz hisob - kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

## XULOSA

Tadqiqotda budjet tashkilotlari faoliyatida budjetdan tashqari jamg'armalar hisobini yuritishga oid me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Unga ko'ra, tegishli qonun va qarorlar jamg'armalar hisobini shaffof va samarali yuritishni ta'minlaydi.

Hisob tizimini tashkil etishning uslubiy yondashuvlari, ayniqsa, moliyaviy monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Bu yondashuvlar budjetdan tashqari mablag'larni samarali boshqarishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

5. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi (2020). O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. Available at: <https://lex.uz/docs/2054763> (Accessed: 20 September 2024).
6. Alimardonov, A. (2024). Moliyaviy hisobni takomillashtirish: byudjetdan tashqari mablag‘lar nazorati. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Jurnali, 3(2), pp. 45-58.
7. Anderson, J. (2023). Public Sector Financial Management: International Practices and Challenges. Oxford University Press.
8. Auerbach, A.J. and Smetters, K. (2023). The Economics of Public Spending. Cambridge University Press.
9. Bardhan, P. (2023). The Role of Government in the Economy. The Journal of Economic Perspectives, 37(1), pp. 5-28.